



Samarqand veterinariya meditsinasi
instituti rektorining 2021-yil “17”
noyabrdagi 521 -buyrugiga
3 -ilova

**Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, filiallar, texnikumlar va litseyda
manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, filiallar, texnikumlar va litsey (keyingi o‘rinlarda Institut)da manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom qoidalari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat’iy nazar Institutning barcha xodimlariga tegishli.

Mazkur Nizom Institutda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish masalalaridagi asosiy ichki hujjat hisoblanadi va barcha xodimlar tomonidan so‘zsiz rioya qilinishishi shart.

Institut xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar Institutning Kadrlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘linmalar (keyingi o‘rinlarda — Kadrlar bo‘limi deb yuritiladi) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Mazkur Nizom maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

aloqador shaxslar — Institut xodimi bilan tijorat Institutlarining ustav kapitalida ishtiroy etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

kronizm — do‘sler yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat (lavozim mavqesidan) va obro‘sidan foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi — Institut xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Institutlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish — xodimlar tomonidan potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e‘lon qilish tartib-taomili;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish — Institut tomonidan xodimlarning xizmat majburiyatları lozim darajada bajarilmasligi holati va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlar) Institut manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

mahalliychilik — shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqeい sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini xisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘sraliga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘sraliga asossiz mukofotlar xisoblash, Institut manfaatlar zarariga, yaqin qarindoshlari va do‘sralini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

potensial manfaatlar to‘qnashuvi — xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Institut bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Institutning manfaatlariga qarama-qarshi bo‘lishi va Institut xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

real manfaatlar to‘qnashuvi — xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Institut bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari) Institut manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo‘lgan vaziyat;

urug‘-aymoqchilik — Institut xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm -Institut xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Institutda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta’til berish yoki sihatgoxlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko‘rib chiqishda ketma-ketlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi-xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablaglari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

shafelik — Institut xodimining lavozimi yuqoriroq bo‘lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi ximoyasi, uni yoklab yonini olishi, yaqin qarindoshlar — qarindosh yoki quda tomongan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-onas, tug‘ishgan va ugay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va ugay aka-uka va opa-singillari.

2-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning tamoyillari

Institut xodimlari manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilishlari shart:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun kuyish;

oshkorlik, vijdonlilik, xolislik asosida qarorlar qabul qilish;

potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning shartligi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktik choralarining ustuvorligi;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ko‘rib chiqish va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi;

manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari bilan tafsiflangan vaziyatlarni ko‘rib chiqish, baxolash va hal qilishga xolis yondashuv;

belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;

agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tegishli tartibda xabar bergan hamda Institut manfaatlari foydasiga o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo‘lsa, uni real

yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo‘shatilishiga yo‘l qo‘ylmasligi;

shaffoflik va xisobdorlik;

shaxsiy javobgarlik va jazoning muqarrarligi.

3-bob. Masul tarkibiy tuzilmalar xodimlarining majburiyatları va vakolatlari

Institut xodimlari o‘zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va (yoki) Institutning manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o‘zlarini saqlashlari shart.

Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun Institut xodimlari:

ushbu Nizom talablariga rioya qilishi;

fakat Institut manfaatlarini ko‘zlashi; o‘z mansab va xizmat mavqeidan fakat Institut manfaatlari yo‘lida foydalanishi;

Institut manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlar to‘g‘risida Institutning Korrupsiyaga karshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda — Ichki nazorat tuzilmasi)ni xabardor qilishi;

nepotizm (qarindoshlik), shafelik, favoritizm, kronizm, mahalliychilik va urug‘-aymokchilikning namoyon bo‘lishiga kat‘iy chek qo‘yishi;

potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni o‘z vaktida va to‘liq oshkor qilishi;

o‘zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq ro‘yxatini, o‘zining va ularning nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki hakidagi ma’lumotlarni halol, to‘liq va vijdonan oshkor qilishi;

agarda Institutning boshqa xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligiga oid ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda ichki hujjatlarda belgilangan tartibda xabar berishi shart.

Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida Institut xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi kerak, agar:

xodimning bevosita bo‘ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar bo‘lsa;

belgilangan tartibda faoliyati o‘rganilayotgan Institutda xodimning yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar faoliyat yuritsa yoki belgilangan tartibda faoliyati o‘rganilayotgan mansabdor shaxs xodimning yaqin qarindoshi va (yoki) aloqador shaxs bo‘lsa;

xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini xisoblash va to‘lash, mukofotlar, ustamalarga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa.

Mazkur ro‘yxat yakuniy xisoblanmaydi. Institut xodimi yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan (ular faoliyat yuritayotgan Institutlarga) har qanday qarorlar qabul qilish (imtiyozlar berish, litsenziyalar taqdim etish, maxsulotlar sotib olish va shu kabilar) holati potensial manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chikarishi mumkin. Bunday xollarda, Institut xodimi manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi lozim bo‘ladi.

Mazkur Nizomning 10-bandida qayd etilgan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlarni aniqlash uchun xodim qaror qabul qilish yoki xizmat majburiyatlarini bajarishdan avval o‘ziga quyidagi savollarni berishi lozim: ”Men qarorni vijdonan va xolis qabul qilishim, harakatni amalgalash mumkinmi?” va ”Agar bu qarorni boshqa xodim qabul qilganda, xuddi men qabul qilgan qarorni qabul qilgan bo‘larmi?”. Agar xodim bu savollardan bitgasiga bo‘lsa xam ”Yo‘k” deb javob bersa, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi xatari yuzaga keladi.

Institutda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash borasida quyidagilar amalga oshiriladi:

xodimlarni ishga qabul qilish yoki lavozimga tayinlashda, shuningdek boshqa holatlarda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chikaruvchi axborot jamlanadi;

har bir xodim mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarishida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi holatini aniklaydi hamda o‘zining rahbariga va Kadrlar bo‘limiga xabar beradi;

manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan har bir ma’lumot yoki xabar kollegial tartibda o‘rganilib, uning ta’siri aniqlanadi. Qonun hujjatlari talablari doirasida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning boshqa usullari xam qo‘llanilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi quyidagicha boshqariladi:

xodimlarni ishga qabul qilishda ularga mazkur Nizom talablari imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladi;

Nizom talablari bo‘yicha xodimlarga tushuntirish va maslahatlar berish ishlari olib boriladi;

aniklangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ro‘yxatga olib boriladi;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish, ularga baho berish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarmi belgilash Kadrlar bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi;

manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish jarayonining samaradorligini ta’minalash maqsadida kuzatish hamda monitoring amalga oshiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi boshqarishida qonun hujjatlari talablari asosida boshqarishning boshqa usullari xam qo‘llanilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hollarda quyidagi choralar kurilishi mumkin:

xodimning tegishli faoliyatni amalga oshirishda yoki qaror qabul qilishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etmasligi yoki chetlashishiga ruxsat berish;

xodimning lavozim vazifalarini ko‘rib chiqish yoki unga o‘zgartirish kiritish;

xodimning shaxsiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarga cheklovlar o‘rnatish;

xodimning shaxsiy manfaatlari uning lavozim majburiyatlariga zid bo‘lsa, uni manfaatlar to‘qnashuvi ta’sir etmaydigan boshqa lavozimga o‘tkazish;

xodimning Institut faoliyatiga yoki manfaatlariga salbiy ta’sir etuvchi o‘zining shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi;

xodimning shaxsiy manfaatlari Institut faoliyatiga yoki manfaatlariga zid bo‘lsa hamda uni boshqarishning boshqa choralarini qo‘llash imkonini bo‘lmasa xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish.

4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va ko‘rib chiqish tartibi

I-Manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning umumiy qoidalari

Institutda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning quyidagi shakllaridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

Institut tizimida vakant bo‘lgan bo‘sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish;

manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har yil oshkor qilish (yillik deklaratsiya);

real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelish fakti bo‘yicha ma’lumotlarni oshkor qilish.

2-Bo‘sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish

Institut tizimida bo'sh ish joylariga nomzodlarni, xodimlarni lavozimga tayinlash va ularni rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda deklaratsiya qilish Institutning Kadrlar bo'limiga quyidagi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi:

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofik shakl bo'yicha to'ldirilgan ma'lumotnomasi;

ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rotatsiya qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risida mazkur Nizomning 2 va 3-ilovalariga muvofik shakldagi ariza to'ldiriladi.

Xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlар Kadrlar bo'limi tomonidan ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha tekshiriladi. Manfaatlar to'qnashuvi aniklanganida Kadrlar bo'limi Institut rahbarini yoki nomzod ishga qabul qilinishishi yoki rotatsiya qilinishini nazarda tutilgan tarkibiy bo'linma faoliyatini muvofiqlashtiruvchi rahbar o'rnbosarini xabardor qiladi.

Rahbar ko'rsatmasiga asosan Kadrlar bo'limi Institutdagи tegishli tuzilmalar bilan xamkorlikda manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralarini ko'radi.

3-Manfaatlar to'qnashuvini har yillik deklaratsiya qilish

16. Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni har yili deklaratsiya quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Institut xodimlari har yili 15-fevralgacha mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda har yili ariza topshirishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari va to'ldirilgan arizani Kadrlar bo'limiga taqdim qilishlari lozim;

Kadrlar bo'limi 10-martgacha manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqlash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqida olingan arizalarni taxlil kiladi;

taxlil natijasida faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlar aniklansa, bunday xodimlar haqidagi ma'lumot Institut Odob-axlok komissiyasiga taqdim qilinadi;

Institut Odob-axlok komissiyasi xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo'lganda) xodim ishtirokida 20-martgacha manfaatlar to'qnashuvi holatini ko'rib chiqadi va manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflanadigan vaziyatlarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida qaror chikaradi. Mazkur qaror komissiya bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomada chora-tadbirlarni ishlab chiqishga mas'ul tuzilma (mansabdar shaxs) belgilab qo'yiladi;

Kadrlar bo'limi tomonidan 25-martgacha mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofik shaklda Manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestriga kiritiladigan manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi elektron ma'lumotlarni jamlaydi va saklaydi;

har yili chorakda Institutning Kadrlar bo'limi manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish, aniqlash va hal qilish bo'yicha statistika taxlilini Korrupsiya qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o'rnlarda — Ichki nazorat tuzilmasi) va Institut rahbariga kiritadi.

4-Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqish fakti bo'yicha deklaratsiya to'ldirish

Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi fakti bo'yicha ma'lumotlarni deklaratsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Institut xodimida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqanda, u mazkur holat unga ma'lum bo'lgan paytdan boshlab bir ish kuni ichida bu xaqda bevosita rahbariga real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatni batafsil bayon etgan holda, mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofik shaklda xabar berishi lozim;

xodimning bevosita rahbari xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni ko'rib chiqishi va manfaatlar

to‘qnashuvini barataraf qilish bo‘yicha taklif bilan xabarnomani Kadrlar bo‘limiga ro‘yxatdan o‘tkazish hamda tegishli choralarni ko‘rish uchun taqdim etishi shart;

Kadrlar bo‘limi xodimning bevosita rahbari bilan xamkorlikda manfaatlar to‘qnashuvini barataraf etish choralarni ko‘radi yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi haqida xulosa qilinib, Ichki nazorat tuzilmasi va Institut rahbariga yozma shaklda tegishli ma’lumot kiritiladi.

5-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari

Institut manfaatlarining buzilishini oldini olish maqsadida real manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari imkon qadar tezroq amalga oshirilishi lozim.

Institutda manfaatlar to‘qnashuvilarini boshqarishda quyidagi choralar belgilanishi kerak:

bevosita bo‘ysunadigan xodimni yaqin qarindoshi bo‘lmagan boshqa shaxs bo‘ysunuviga o‘tkazish;

manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda va ular bo‘yicha qaror chikarish jarayonida katnashishdan xodimning o‘z ixtiyoriga ko‘ra chetlashish, o‘zini o‘zi rad etishi yoki uni majburan (doimiy yoki vaktinchal) chetlashtirilishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun xodimning lavozim majburiyatlarini doirasini qayta ko‘rib chiqish;

xodim tomonidan uning shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan va manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan Institutning ma’lumotlari va hujjatlaridan foydalанишни cheklash;

yukorirok lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh va (yoki) aloqador shaxsga nisbatan lavozimni ko‘tarish, faoliyatini baholash, mukofot pullarini to‘lash va ish haqiga ustamalarni xisoblash, o‘qishga va treninglarga hamda turli masalalar bo‘yicha xorijga yuborish, mehnat ta‘tiliga chiqishga rozilik berish va ish haqini nazorat qilish haqida jamoaviy tarzda qaror qabul qilinishishini ta‘minlash;

xodimni manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan mehnatga oid funksiyalarni bajarishini nazarda tutadigan lavozimga o‘tkazish va boshqa holatlар.

Istisno holatlarda, ushbu Nizomning 19-bandida sanab o‘tilgan choralar manfaatlar to‘qnashuvini to‘liq tartibga solmagan taqdirda, quyidagi tartibga solish choralarini ko‘rilishi mumkin:

xodim tomonidan Institutning manfaatlariga to‘qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

xodim tomonidan Institut manfaatlariga to‘qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechmaganda uning mehnat shartnomasini bekor qilish.

Har bir vaziyatda, manfaatlar to‘qnashuvi predmetini belgilab beradigan faktdan kelib chiqib, xodim bilan Institutning kelishuviga ko‘ra uni hal qilishning boshqa choralar qo‘llanilishi mumkin, ko‘riladigan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi va mazkur Nizomda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishni ta‘minlashi lozim.

Institutda Kadrlar bo‘limi va xodimning bevosita rahbari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini barataraf etish choralarini va qabul qilingan qarorlar Odob-axlok komissiyasining eng yaqindagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, bu xaqda majlis bayonnomasida aks etgiriladi.

Ichki nazorat tuzilmasi xodim e’tiroziga yoki rahbar topshirig‘i, shuningdek o‘z tashabbusi bilan Kadrlar bo‘limi va xodimning bevosita rahbari, shuningdek odob-axlok komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshirish huquqiga ega.

6-bob. Axborotning konfedensialligi

Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda katnashadigan xodimlar olingan ma’lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashi va ushbu ma’lumotlardan fakat ko‘rib chiqish, xisobga olish va hal etish choralarini kurish hamda ushbu jarayonni nazorat qilish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan foydalанишни ta‘minlashi lozim.

25. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Institutning xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bilan Institutga murojaat qilinganida uni ko‘rib chiqish Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan Kadrlar bo‘limi bilan hamkorlikda mazkur Nizom va boshqa ichki hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

7-bob. Reestrni yuritish va saqlashga qo‘yiladigan talablar.

Institutning Kadrlar bo‘limi manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining xisobini mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofik shaklda Reestrga kiritish yo‘li bilan o‘z vaktida va to‘liq yuritishlari shart. Bunda, hududiy va tarkibiy bo‘linmalarning Reestridagi ma’lumotlar markaziy apparat Kadrlar bo‘limi tomonidan Institutning umumiyligiga Reestiriga birlashtirib boriladi. Umumiyligiga Reest Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga har chorakda taqdim etib boriladi.

Ma’lumot Reestrga quyidagi hollarda kiritilishi kerak:

Institutga ishga qabul qilishda nomzod manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqida arizada manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa va Institut rahbari manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

lavozimga tayinlash/rotatsiya qilish vaktida manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilishda - Institut rahbari tomonidan buyruq imzolangan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan;

manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishiga kura — Kadrlar bo‘limi va xodimning bevosita rahbari tomonidan chora ko‘rilgan taqdirda;

Institut xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlar har yili deklaratsiya qilinganda — mazkur Nizomning 16-bandiga muvofiq;

manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi haqida aloqa kanallaridan olingan ma’lumot tasdiqlanganda;

ichki xizmat tekshiruvlari o‘tkazilganda va Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va talablariga rioya qilinishishi monitoring qilinganda hamda Institut rahbari tomonidan Reestrga ma’lumot kiritish haqida bevosita ko‘rsatma bo‘lganida.

Xodimlarning manfaatlar to‘qnashuviga tegishli bo‘lgan ariza va xabarnomalari hamda boshqa ma’lumotlar Kadrlar bo‘limida saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

Egallab turgan lavozimidan qatiy nazar, barcha xodimlar, ushbu Nizomning talablariga rioya qilish, shuningdek, o‘z manfaatlarining to‘qnashuvi to‘g‘risida Institutga o‘z vaktida va to‘liq ma’lumot berish bo‘yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti,
filiallar, texnikumlar va litseyda manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomga

1 -ilova

Nomzod/xodim ma’lumotnomasining
TAXMINIY SHAKLI

MA’LUMOTNOMA

FISH (to‘liq)

rasm

(oxirgi ish joyida ish boshlagan sanasi):

(oxirgi egallagan lavozimi)

Tug‘ilgan sanasi:

Tug‘ilgan joyi:

Millati:

Partiyaviyligi:

Ma’lumoti:

Tugatgan:

Ta’lim mutaxassisligi:

Ilmiy unvoni:

Ilmiy darajasi:

Qanday chet tillarini biladi:

Harbiy (maxsus) unvoni:

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanday)?:

Halk deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi
yoki boshqa saylanadigan organlarning azosimi (tuliq ko‘rsatilishi lozim):

MEXNAT FAOLIYATI

(F.I.Sh tuliq) yaqin qarindoshlari to‘g‘risida

MA‘LUMOT

Qarindoshlik darajasi	Familiyasi, ismi, sharifi	Tug‘ilgan sanasi va joyi	Ish joyi va lavozimi	Yashash manzili

(F.I.Sh to‘liq) YAQIN qarindoshlari ustav kapitalida ulushga ega yoki boshqaruvida ishtirok etayotgan yuridik shaxslarga doir

MA’LUMOTLAR

Yuridik shaxs - nomi, ro‘yxatdan o‘tgan raqami	Egalik subyekti va qarindoshlik	Egalik ulushi / boshqaruvdagi roli	Yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi

Tijorat institutlarining ustav kapitalida ishtirok etayotgan
(F.I.Sh tuliq) va unga aloqador shaxslarga* doir

MA'LUMOTLAR

Tijorat Instituti nomi, ro'yxatdan o'tgan raqami	Egalik ulushi

* Aloqador shaxslar ro'yxati xodim ustav kapitalida ishtirok etayotgan Institut haqidagi
ochik manbalardan olinadi.

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti,
filiallar, texnikumlar va litseyda manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizomga
2-ilova

Ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to‘g‘risidagi
arizaning
NAMUNAVIY SHAKLI

F.I.Sh (to‘liq) _____

Nomzod da‘vogarlik qilayotgan tarkibiy
bo‘linma nomi

Nomzod da‘vogarlik qilayotgan lavozim _____

To‘ldirilgan sana _____

Ushbu arizada quyidagi atamalar «qo‘llaniladi:

yaqin qarindoshlar — qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya‘ni ota-onal, tug‘ishgan va ugay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va ugay aka-uka va opa-singillari.

aloqador shaxslar — Institut xodimi bilan tijorat Institutlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno; mansabdor shaxs:

doimiy, vaktincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat‘iy nazar, korxonalarda, litseyda, Institutlarda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik axamiyatga ega harakatlarni sodir etisha vakolat berilgan shaxs, halkaro Institutda yoxud chet davlatning qonun chikaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalgā oshiruvchi shaxs; manfaatlar to‘qnashuvi — Institut xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Institutlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat; xodimning shaxsiy manfaatdorligi xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

1. agar sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar Institutda ishlayotgan bo‘lsa, ularning lavozimini va tarkibiy bo‘linmasini ko‘rsating (agar ular ishlamasা, ”yo‘k” deb yozing).

a / Yo‘q

izohlar.

2.

boshqaruv organi (boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va h.k.) xodimi, a’zosi, qandaydir tashkilot direktori yoki vakilimisiz? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishingizdan qat’iy nazar har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rningizni hisobga oling.

(Izox: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, izoxlar satrida barcha tegishli Institutlar, tashkilotlar nomi va ulardagi o‘rningiz (lavozimiz)ni ko‘rsatib o‘ting

A) Ha B) Yo‘q

B) Izoxlar:

3. Sizda / yaqin qarindoshlaringizda qandaydir Institutlarda kandaydir moliyaviy manfaatdorligi bormi (jumladan, ustav kapitalida ishtiro etish, aksiya va obligatsiyalarga egalik qilish) yoki Siz boshqa tarzda bunday tashkilotlar qarorlariga ta’sir ko‘rsata olasizmi? (agar siz har kanday tashkilotning ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyalarini yoki ustav kapitalidagi ulushi yoki har qanday Institutning Respublika fond birjasini yoki boshqa fond birjasining ommaviy muomalasida bo‘lgan qimmatbahon kog‘ozlarining 5 va undan ko‘p foiziga egalik qilsangiz)

Izoh: “Ha”, yoki «Yo‘q» javoblarini belgilang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, “Izoxlar” satrida barcha tegishli Institutlar nomi va Sizning ulardagi manfaatingiz turi ustav kapitalidagi ishtirokingiz ulushi, aksiyalarga egalik qilish va «h,klarni ko‘rsatib o‘ting.)

a / Xa b/ yuq

izohlar:

4. yaqin qarindoshlaringiz va/yoki sizga aloqador shaxslar institutda, filiallarda, texnikumlarda va litseyda ishlaydimi?

Izoh: “Ha”yoki “Yuq” javoblarini belgilang; agar javobingiz «Ha» bo‘lsa, “Izohlar” satrida bunday qarindosh(lar), aloqador shaxs (lar)ning FISH, uning(ularning) lavozimi va fakulteti, filiallar, texnikumlar va litseyni qayd etgan holda aniq ish joyini ko‘rsatib o‘ting)

5. a / Ha b / Yo‘q

Izohlar.

6. Yaqin qarindoshlaringiz boshqaruv organlari (boshqaruv, kuzatuv kengashi, prorektorlar kengashi va h.k.) xodimi, a’zosi, Institut direktori yoki vakilimi? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek mazkur Institutlardan qandaydir kompensatsiya olishidan qat’iy nazar ularning har qanday Institut, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rnini hisobga oling.

(Izoh. • “Ha” yoki “Yo‘q” javoblarini tanlang; agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, izohlar satrida barcha tegishli institut, filial, texnikum va litsey va yaqin qarindoshingizning ulardagi uni (lavozimini) ko‘rsatib o‘ting)

- a / Ha b/ yo‘q

izohlar.

7. yaqin qarindoshlaringiz davlat organlarining mansabdon shaxsi hisoblanadimi?

(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javoblarini tanlang; agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, izohlar satrida bunday qarindoshingiz (laringiz)ning FISH), ularning lavozimi va Institut nomini ko‘rsatib o‘ting)

- a / Ha b/ yo‘q

izohlar:

8. Shaxsiy manfaatlaringiz, yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar manfaatlari yo‘lida maxfiy hisoblangan, davlat organlari va tashkilotlarida ishlash davomida ma’lum bo‘lgan axborotdan foydalanganmisiz (jumladan, qandaydir jismoniy shaxs yoki tashkilotga oshkor qilganmisiz)?

Izoh: "Ha" yoki "Yo'q" javoblarini tanlang; agar javobingiz "Ha" bo'lsa izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)

a / Ha b/Yo'q

Izohlar:

9. Manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, ularni ko'rsatib o'ting

Izohlar. •

Zarur topsangiz, har qanday qo'shimcha ma'lumotni ko'rsating

Izohlar. •

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagini chizing).
- Men ushbu arizada aks etgan ma'lumotlar to'liqligi va xaqqoniyligiga hamda men ushbu ma'lumotlarni tegishli huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman.
- Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har kanday arizani xaqqoniyligiga ta'sir qiladigan yangi holatlar to'g'risida Institutga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

(F.I.Sh)

(imzo)

(sana)

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti,
filiallar, texnikumlar va litseyda manfaatlar
to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizomga
3-ilova

Rotatsiya/lavozimga tayinlanishda yoki yillik deklaratsiyani to‘ldirish vaqtida manfaatlar
to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to‘g‘risidagi arizaning
NAMUNAVIY SHAKLI

F.I.Sh to‘liq	
Nomzod da‘vogarlik qilayotgan tarkibiy bo‘linma nomi	
Nomzod da‘vogarlik qilayotgan lavozim	
To‘ldirilgan sana	
Ushbu arizada quyidagi atamalar qo‘llaniladi: yaqin qarindoshlar — qarindosh yoki kuda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-onas, tug‘ishgan va ugay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.	
aloqador shaxslar Institut xodimi bilan tijorat Institutlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno; manfaatlar to‘qnashuvi — Institut xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Institutlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat; xodimning shaxsiy manfaatdorligi — xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablaglari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, molivayiy, siyosiy va boshqa manfaatlari	
1	Agar sizning yaqin qarindoshlarингiz yoki aloqador shaxslar Instituteda ishlayotgan bo‘lsa, ularning lavozimini va tarkibiy bo‘linmasini ko‘rsating (agar ular ishlamasা, yo‘q deb yozing).

2	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etsa (yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa), sizning egallab turgan lavozimингиз manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? (agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "ishtirok etmaydi", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa sababini ko'rsating, olib kelmasa, "olib kelmaydi" deb ko'rsating).
3	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar nodavlat-notijorat tashkilotlarini boshqarishda qatnashsa, sizning egallab turgan lavozimингиз manfaatlar to'qnashuviga olib keladi deb o'ylaysizmi? (agar ishtirok etsa ularni ko'rsating, ishtirok etmasa, "ishtirok etmaydi", agar u manfaatlar to'qnashuviga olib kelsa sababini ko'rsating, olib kelmasa, "olib kelmaydi" deb ko'rsating).
4	Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar davlat idoralarida va Institutlarida ishlaydimi? Agar javob "Ha" bo'lsa qaysi Institutligini, lavozimini ko'rsating.
5	Sizga Institut xodimlari tomonidan uning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid ichki hujjatlarini buzish yoki ehtimoliy buzish bilan bog'liq holatlar ma'lummi? (Izoh: «Ha» yoki «Yo'q» javoblarini tanlang; agar javobingiz «Ha» bo'lsa, izohlar satrida bu haqda batatsil yozing)
6	Lozim deb topsangiz qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsating.

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagini chizing).
- Men ushbu arizada aks etgan ma'lumotlar to'liqligi va xaqqoniyligiga hamda men ushbu ma'lumotlarni tegishli huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman.
- Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom talablariga binoan, men to'ldirgan har kanday arizani haqqoniyligiga ta'sir qiladigan yangi holatlar to'g'risida Institutga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

(F.I.Sh)

(imzo)

(sana)

Samarqand veterinariya meditsinasini instituti, filiallar, texnikumlar va litseyda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizomga

4-ilova

Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining xisobga olish

REESTRI

Маълумот олинган сана	<p>Манфаатлар тўқнашшуви мавжуд бўлган ходимнинг Ф.И.Ш</p> <p>Ташкилот таркибий тузилмаси ва ходимнинг лавозими</p>	<p>Манфаатлар тўқнашувининг предмети</p> <p>Манфаатлар тўқнашувининг тури (ҳакиқий ёки потенциал)</p>	<p>Манфаатлар то‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha</p>	<p>Одоб-ахлоқ комиссия йигилиш баённомаси раками ва санаси, Кадрлар бўлими томонидан кабул килинган карор реквизитлари</p>	<p>Белгиланган чораларнинг амалга оширилиши устидан назорат килиш бўйича масъул шахс</p>
-----------------------	--	---	---	---	---

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, filiallar, texnikumlar va litseyda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizomga

5-ilova

ga bevosita rahbarning F.I.Sh to‘liq
dan
F.I.Sh to‘liq

Instituti, lavozimi

aloqa telefon raqami

Manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqishi extimoli haqida
XABARNOMA

Institutning 20 _____ yil “_____” — son _____ buyrug‘iga asosan men,

(F.I.Sh, lavozimi) sizga manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqish extimoli haqida quyidagilarni xabar qilaman:

(Shaxsiy manfaatlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) xizmat vazifalarini bajarishiga ta’sir kilayotgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Institutning manfaatlariga zid kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatni tasvirlaydi).

(F.I.Sh)

(imzo)

(sana)

Xodimning bevosita rahbari tomonidan to‘ldiriladi

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun quyidagi choralar taklif qilinadi:

(manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun ko‘rilgan choralar ko‘rsatiladi)

(rahbarning F.I.Sh)

(imzo)

(sana)